



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафаэловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim To'vashevich	



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI INDIVIDUALLASHTIRISHNING SAMARADORLIGI: KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA

Tangriyev Abdulkarim Tovashevich

TDIU "Jismoniy madaniyat va sport faoliyati" kafedrasi professori

ORCID: 0009-0002-0447-9066

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida individuallashtirishning nazariy-metodologik asoslari hamda uning ta'lim samaradorligiga ta'siri tadqiq etilgan. Talabalarning jismoniy tayyorgarligi, sog'lig'i, qiziqishlari va individual imkoniyatlaridagi farqlarni hisobga olgan holda tashkil etilgan mashg'ulotlarning pedagogik samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirish talabalarning jismoniy faolligi, o'quv motivatsiyasi, sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalari hamda mustaqil jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan individual ta'lim strategiyalari jismoniy tarbiya fanining amaliy natijadorligini oshirish, talabalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ta'lim sifatini yuksaltirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, jismoniy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv, individuallashtirish, jismoniy faollik, sog'lom turmush tarzi, talaba kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati, individual ta'lim trayektoriyasi, jismoniy tayyorgarlik, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of individualizing physical education classes in higher education institutions based on a competency-based approach and evaluates its impact on educational effectiveness. The pedagogical effectiveness of classes organized with consideration of students' physical fitness levels, health conditions, interests, and individual capabilities is analyzed. The study employs methods of scientific literature review, comparative analysis, systems approach, and generalization. The findings indicate that the individualization of physical education classes contributes to increasing students' physical activity, learning motivation, healthy lifestyle competencies, and independent exercise skills. Furthermore, it is substantiated that individualized educational strategies developed within the framework of a competency-based approach serve as an important factor in enhancing the practical effectiveness of physical education, promoting healthy lifestyles among students, and improving the overall quality of higher education.

Key words: higher education, physical education, competency-based approach, individualization, physical activity, healthy lifestyle, student competencies, pedagogical technologies, quality of education, individual learning trajectory, physical fitness, educational effectiveness.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретико-методологические основы индивидуализации занятий по физическому воспитанию в высших образовательных учреждениях на основе компетентностного подхода и её влияние на эффективность образовательного процесса. Проанализирована педагогическая эффективность занятий, организованных с учётом различий в уровне физической подготовленности, состоянии здоровья, интересах и индивидуальных возможностях студентов. В ходе исследования использовались методы анализа научной литературы, сравнительного анализа, системного подхода и обобщения. Установлено, что индивидуализация занятий по физическому воспитанию способствует повышению физической активности студентов, учебной мотивации, развитию компетенций здорового образа жизни и навыков самостоятельных занятий физическими упражнениями. Обосновано, что индивидуальные образовательные стратегии, разработанные на основе компетентностного подхода, являются важным фактором повышения практической результативности физического воспитания, формирования здорового образа жизни студентов и улучшения качества образования.

Ключевые слова: высшее образование, физическое воспитание, компетентностный подход, индивидуализация, физическая активность, здоровый образ жизни, компетенции студентов, педагогические технологии, качество образования, индивидуальная образовательная траектория, физическая подготовленность, эффективность обучения.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish hamda talaba shaxsining individual rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish muhim yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Jismoniy tarbiya fanining oliy ta'limdagi ahamiyati nafaqat talabalarining jismoniy tayyorgarligini oshirish, balki ularning sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarini shakllantirish, stressga bardoshlilikni rivojlantirish va mehnat faoliyatiga tayyorlash bilan ham izohlanadi. Biroq amaliyotda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ko'p hollarda standart dasturlar asosida olib borilishi talabalar o'rtasidagi jismoniy rivojlanish darajasi, sog'lig'i, qiziqishlari va sport tayyorgarligidagi individual farqlarni yetarli darajada hisobga olish imkonini bermaydi. Dunyo amaliyotida individual ta'lim trayektoriyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari talabalarining o'quv motivatsiyasi, jismoniy faolligi va sog'lom turmush tarziga rioya qilish ko'rsatkichlarini sezilarli oshirishi aniqlangan. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida individuallashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilish hamda uning samaradorligini baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish hamda ta'lim jarayonini individuallashtirish masalalari so'nggi yillarda pedagogika va sport ta'limi sohasidagi eng dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishda talabalarining individual xususiyatlari, qiziqishlari, sog'lig'i va jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarurligi xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda alohida ta'kidlanmoqda. Xalqaro miqyosda jismoniy tarbiya sifatini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning nazariy asoslari UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Quality Physical Education" (QPE) konsepsiyasida o'z aksini topgan. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, zamonaviy jismoniy tarbiya tizimi barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratishi, ularning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. UNESCO mutaxassisleri sifatli jismoniy tarbiya o'quvchilarda va talabalarda nafaqat jismoniy kompetensiyalarni, balki ijtimoiy, emotsional va sog'lom turmush tarziga oid ko'nikmalarni ham shakllantirishini qayd etadilar. UNESCOning 2023–2025-yillardagi hisobotlarida ham individual yondashuv va inklyuziv ta'lim tamoyillari jismoniy tarbiya samaradorligining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv asosida individuallashtirilgan ta'limning samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. M. Sölch, M. Aberle va S. Krusche (2023) kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelini tadqiq etar ekan, har bir talabaning mavjud bilim va ko'nikmalarini baholash hamda unga mos individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish ta'lim natijalarini sezilarli yaxshilashini ta'kidlaydilar. Tadqiqotchilar individual o'quv yo'llarini yaratish talabaning motivatsiyasi va o'zlashtirish darajasini oshirishini ilmiy jihatdan asoslaganlar. Yevropa davlatlarida olib borilgan tadqiqotlarda ham jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirish masalasi keng yoritilgan. Marron (2023) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida individual ehtiyojlarni hisobga olish talabalar faolligini oshirish, mashg'ulotlarga qiziqishni kuchaytirish va jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilashga



xizmat qiladi. Muallif inklyuziv va individuallashtirilgan yondashuv jismoniy tarbiya sifati ko'rsatkichlarini oshiruvchi asosiy pedagogik omillardan biri ekanligini qayd etadi. Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish, talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini joriy etish va kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish masalalari keng o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlar R.S. Salomov, A.A. Abdullayev, Sh.X. Xonkeldiyev va B.X. Xo'jayevlarning ilmiy ishlarida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi asoslab berilgan. Ularning tadqiqotlarida jismoniy mashqlar yuklamasini tabaqalashtirish va individual me'yorlashtirish jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

Shuningdek, respublikamizda oliy ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda talabaniq mustaqil faoliyatini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish va natijaga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llash ta'lim sifatining muhim omili sifatida baholandi. So'nggi yillarda oliy ta'lim standartlarining kompetensiyaviy model asosida takomillashtirilishi ham mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlarning amaliy ifodasi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida individuallashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda soha bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Mavzuning mazmun-mohiyatini ochib berishda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, ilmiy umumlashtirish hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning talabalarning jismoniy faolligi, motivatsiyasi va sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyatini baholash maqsadida mantiqiy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot natijalari asosida kompetensiyaviy yondashuvga tayangan holda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarni ommaviy sport va sog'lom turmush tarziga jalb etish, shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim qamrovining kengayishi va talabalar sonining ortib borishi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, talabalarning jismoniy rivojlanish darajasi, sog'lig'i, qiziqishlari va sport tayyorgarligidagi individual farqlarini hisobga olish zamonaviy ta'lim tizimining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Milliy statistika ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport sohasida ham barqaror rivojlanish kuzatilmoqda. Xususan, kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni va jismoniy tarbiya hamda sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar soni yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini yanada samarali tashkil etish, ularni talabalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

1-jadval: Oliy ta'lim tizimi va jismoniy faollik ko'rsatkichlarining o'zaro dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
OTMlarda kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalar soni (ming nafar)	441,8	553,9	622,6	661,8	-
Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar soni (mln kishi)	5,2	5,4	5,8	6,4	7,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020–2023-yillar davomida kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni 441,8 ming nafardan 661,8 ming nafarga yetib, qariyb 49,8 foizga oshgan. Mazkur o'sish oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish hamda qabul kvotalarining oshirilishi natijasida yuzaga kelgan. Shu bilan birga, sport va jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanuvchilar sonining 2020-yildagi 5,2 million kishidan 2024-yilda 7,1 million kishiga yetishi mamlakatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ijobiy samarasini namoyon etadi. Biroq talabalar sonining keskin ortishi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Oliy ta'lim muassasalariga turli hududlardan, turli jismoniy tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan yoshlar qabul qilinmoqda. Natijada bitta akademik guruh tarkibida sport bilan muntazam shug'ullangan

talabalar bilan bir qatorda jismoniy faolligi past yoki sog'lig'ida muayyan cheklovlari mavjud talabalar ham uchramoqda. Bunday sharoitda barcha talabalar uchun bir xil yuklama va mashg'ulot dasturlarini qo'llash ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuv aynan mana shu muammoni bartaraf etishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvda asosiy e'tibor talabani qanday bilim olganiga emas, balki egallagan bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga qaratiladi. Jismoniy tarbiya fanida esa bu yondashuv talabani individual jismoniy rivojlanish dinamikasini hisobga olish, sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni shakllantirish, mustaqil shug'ullanish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda shaxsiy sport faoliyatini rejalashtirish qobiliyatini takomillashtirish orqali namoyon bo'ladi. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, individuallashtirilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari talabalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi, sport faoliyatida davomiylikni ta'minlaydi va sog'lom turmush tarziga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Quality Physical Education" konsepsiyasida ham jismoniy tarbiya dasturlarini talabalarning yosh, salomatlik holati, qiziqishi va jismoniy imkoniyatlariga moslashtirish tavsiya etilgan. Mazkur yondashuv natijasida talabalar jismoniy mashqlarni majburiyat sifatida emas, balki kundalik hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida qabul qila boshlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirish bir necha muhim pedagogik natijalarga erishish imkonini beradi. Birinchidan, talabalarning jismoniy imkoniyatlariga mos yuklamalar qo'llanilishi ortiqcha zo'riqish yoki aksincha, yuklamaning yetarli bo'lmasligi kabi holatlarning oldini oladi. Ikkinchidan, sport turlari va mashg'ulot shakllarini tanlash imkoniyatining mavjudligi talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Uchinchidan, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar sog'lom turmush tarziga oid nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi. Shuningdek, individuallashtirilgan yondashuv talabalarda o'z salomatligiga mas'uliyat bilan qarash, jismoniy faollik darajasini mustaqil nazorat qilish, shaxsiy rivojlanish maqsadlarini belgilash va ularga erishish kompetensiyalarini shakllantiradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining nafaqat jismonan sog'lom, balki o'z salomatligini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan tahlillar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida individuallashtirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim pedagogik yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Talabalar sonining o'sishi, sog'lom turmush tarzini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining kuchayishi va ta'lim sifatiga qo'yilayotgan yangi talablar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar asosida tashkil etishni zaruratga aylantirmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan individuallashtirilgan jismoniy tarbiya texnologiyalarini keng joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida individuallashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalar kontingentining kengayishi, ularning jismoniy tayyorgarligi, sog'lig'i va sportga bo'lgan qiziqishlaridagi farqlarning ortib borishi an'anaviy, barcha uchun bir xil yondashuv asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarning samaradorligini cheklamoqda.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan individuallashtirilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari talabalarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lom turmush tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, mustaqil shug'ullanish kompetensiyalarini shakllantirish hamda mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday yondashuv talabalarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish orqali ta'lim jarayonining natijadorligini oshirish imkonini beradi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirish talabalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash bilan bir qatorda, ularning sog'lom turmush tarziga sodiqligini mustahkamlash, jamoada ishlash, o'zini o'zi boshqarish va shaxsiy rivojlanishni rejalashtirish kabi muhim kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Natijada jismoniy tarbiya fani faqat jismoniy sifatlarni rivojlantirish vositasi bo'lib qolmasdan, balki talabani har tomonlama kamol topishiga xizmat qiluvchi muhim ta'lim komponentiga aylanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, sog'lig'i va qiziqishlaridan kelib chiqib, differensial va individuallashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.



2. Jismoniy tarbiya fanining o'quv dasturlariga sog'lom turmush tarzi, o'z salomatligini boshqarish va mustaqil jismoniy faollikni tashkil etishga oid kompetensiyalarni shakllantiruvchi amaliy modullarni keng joriy etish lozim.
3. Talabalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish va natijalarga asoslangan individual mashg'ulot rejalarini ishlab chiqish amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.
4. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish tizimini takomillashtirish zarur.
5. Raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar va sport monitoring tizimlaridan foydalanish orqali talabalarning jismoniy faolligini baholash hamda individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi.
6. Oliy ta'lim muassasalarida fakultativ sport yo'nalishlari va talabalar qiziqishlariga mos sport to'garaklari sonini ko'paytirish orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining amaliy samaradorligini oshirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida individuallashtirish talabalarning jismoniy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi. Mazkur yondashuvni oliy ta'lim amaliyotiga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirish, sog'lom va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. UNESCO. Quality Physical Education (QPE): Guidelines for Policy-Makers / N. McLennan, J. Thompson. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 86 p.
3. UNESCO. Quality Physical Education and Sport: Educating for Life. Global Status Report 2024. – Paris: UNESCO Publishing, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam. – Toshkent, 2024. URL: <https://stat.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2024. URL: <https://stat.uz>
6. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 269 b.
7. Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 312 b.
8. Sölich M., Aberle M., Krusche S. Competency-Based Education in Higher Education: A Systematic Review of Key Concepts and Approaches. – 2023. URL: <https://arxiv.org>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.